

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA TABIIY FANLAR INTEGRATSIYASI

*Filologiya fanlari doktori(DSc), professor
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna
Farg'ona davlat universiteti magistranti
Mahmudova Nazokat Qodirali qizi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va tabiiy fanlarni integratsiyalash asosida o'qitishning nazariy-metodik jihatlari yoritilgan. Fanlararo integratsiya o'quvchilarda bilimlarning yaxlitligini ta'minlash, nutqiy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, tabiat hodisalarini til vositalari orqali anglash imkoniyatlarini kengaytirishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida integratsion yondashuvning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati, o'quvchilarning leksik boyligini oshirish, tushunib o'qish va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ochib berilgan. Shuningdek, ona tili va tabiiy fanlar mazmunini uyg'unlashtirish orqali kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, ona tili, tabiiy fanlar, kompetensiyaviy yondashuv, nutqiy kompetensiya, integratsion dars, mantiqiy tafakkur.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida fanlarni alohida-alohida o'qitishdan ko'ra, ularni o'zaro integratsiyalash asosida o'qitish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bilimlarni yaxlit holda berish ta'lim samaradorligini oshiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va tabiiy fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki tabiat haqidagi ilmiy tasavvurlarini ham shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlar darslarida uchraydigan atamalar, tushunchalar, matnlar ona tili darslarida o'qish, tahlil qilish, izohlash orqali o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilayapti. Bu tushunarli — kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi,

biladi. Shunday ekan ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi — boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi va boshqalar. Integratsion yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga

1. Evristik suhbatlar;
2. Umumiy suhbatlar;
3. Ekskursiyalar;
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'qitish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
5. Ta'limning ko'rgazmali metodlari;
6. Mustaqil ishlar;
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish;
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar);
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish;
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi. Ta'limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi. Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq «integratsiya» tushunchasi ikki ma'noga ega.

1. O'quvchida atrofidagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya — ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).

2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda, integratsiya — ta'lim vositasi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim.

Integratsiya — predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyaning ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida ozgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, ke-yinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib "ozgina narsa to'g'risida hammasini bilish" kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Jahon ta'lim tizimidagi global muammolardan biri o'quv fanlarini integratsiyalash va tabaqalashtirish hisoblanadi. Integratsiya fanlar o'rtasidagi tarkibiy bog'lanishni mustahkamlash, ularni umumlashtirish, o'quvchilarning tabiat va jamiyat to'g'risidagi yaxlit tasavvurlarini yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Integratsiyalash muammosini ijobiy hal etish ta'lim muassasalari o'quv jarayonida zamonaviy axborot va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liq. Mazkur jarayonni to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini oshiribgina qolmasdan, o'qitishning loyihaviy yaratuvchanlik modeli asosini ta'minlaydi. Jumladan, dunyo miqyosida tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina davlatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ayniqsa, tabiiy fanlar yo'nalishiga ega bo'lgan integratsiyalashgan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi. Shu bois mamlakatimiz umumta'lim maktablari, o'quv rejalari va Milliy o'quv dasturlariga asoslangan holda tabiat-jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga mas'ullik munosabatlarni shakllantirishda fanlar integratsiyasi muhim o'rin tutadi. Ta'limda integratsiyalash o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi. Bunda, o'quvchi o'z faolligini tanish fan bilimlarini mavjud bo'lgan noma'lum munosabatlarni izlashga yoki aniq o'rnatilgan o'quv materiallarini fanlararo aloqadorlik asosida yangi tushunchalarni shakllantirishga safarbar etadi. O'zbekiston Respublikasi ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish vazifalari belgilangan. Bu borada fanlararo integratsiya

o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirish sohasida ham, ijodiy faoliyat va borliqdagi o'zlashtiriladigan obyektlarga hissiy-qadriyatli munosabatni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida o'quvchilarning yorqin, aniq va yaqqol tasavvurlari fikr yiritish yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishdir. Fanlararo integratsiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri ijodiy ya'ni kreativ faoliyatning yaqqolliigi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o'quvchidan hodisa va jarayonlarning bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bugungi kunda maktab fanlarini yaxlitlashga ya'ni fanlararo integratsiyalashga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlandi. Fanlararo integratsiyada turli bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosi amaliy faoliyatda takomillashtirilmoqda. Mazkur vazifalarni yo'lga qo'yish maqsadida o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo integratsiya mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan munosabatni snakianturisnda nam munum anamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida o'quvchilarning yorqin, aniq va yaqqol tasavvurlari fikr yiritish yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishdir. Fanlararo integratsiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri ijodiy ya'ni kreativ faoliyatning yaqqolliigi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o'quvchidan hodisa va jarayonlarning bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bugungi kunda maktab fanlarini yaxlitlashga ya'ni fanlararo integratsiyalashga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlandi. Fanlararo integratsiyada turli bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosi amaliy faoliyatda takomillashtirilmoqda. Mazkur vazifalarni yo'lga qo'yish maqsadida o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo integratsiya mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan munosabatni snakianturisnda nam munum anamiyat kasb etadi. O'quv jarayonida o'quvchilarning yorqin, aniq va yaqqol tasavvurlari fikr yiritish yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan

materiallari eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar ijodiy izlanishning eng muhim omili o'quv fanlarini o'qitishda fanlararo integratsiyani takomillashtirishdir. Fanlararo integratsiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri ijodiy ya'ni kreativ faoliyatning yaqqolligi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati toboro kengayadi. Bu esa o'quvchidan hodisa va jarayonlarning bir-biriga uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bugungi kunda maktab fanlarini yaxlitlashga ya'ni fanlararo integratsiyalashga nisbatan yangi yondashuv bosqichi boshlandi. Fanlararo integratsiyada turli bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtirish, yaxlit holda integratsiyalash muammosi amaliy faoliyatda takomillashtirilmoqda. Mazkur vazifalarni yo'lga qo'yish maqsadida o'quv jarayonida fanlararo integratsiyani ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida har bir o'quv fanining fanlararo integratsiya mazmunini takomillashtirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalangan holda o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan tizimini shakllantirish lozim. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan va ona tili savodxonligi fanlarini fanlararo bog'lab o'qitishda o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo integratsiyaning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda yangicha yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo'naltiradi. Integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yishda asosan: ona tili savodxonligi, o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar, matematika, texnologiya, musiqa va tasviriy san'at kabi o'quv fanlari yordamida har tomonlama mukammal takomillashtirish mumkin. Bu esa o'quvchi shaxsini emotsional va axloqiy rivojiga, unda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinflarda ona tili va tabiiy fanlar integratsiyasi o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, tabiat hodisalarini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Integratsion yondashuv orqali o'qitish o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etadi, ularning qiziqishini oshiradi hamda kompetensiyaviy ta'lim talablarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili va tabiiy fanlar integratsiyasiga asoslangan metodik tavsiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva Sh. Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.

2. Zunnunov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Karimova G. Boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2022.
6. Mahmudov N. Ta'limda integratsiya va innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Rasulov R. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. Qodirova F. Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
10. To'xtayeva H. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2021.